

# **LOGISTIKA XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINING AYRIM MASALALARI**

**Po’latov Xudoyber O’ktamovich - SamISI katta o’qituvchisi.  
Isroilov Dostonjon Ilg’orjon o’g’li - SamISI talabasi.**

**Annotatsiya:** maqlada mamlakatimizda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo’nalishlari bilan bog’liq yangicha ma’lumotlar bilan tanishtirib chiqilgan.Shuningdek, logistika xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining ayrim masalalari bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** logistika, transport infratuzilmalari, harakatlar strategiyasi, yo‘l-transport, modernizasiya, raqamli rivojlanish, xarajatlar,soliq imtiyozlari, yuk tashish operatorlik faoliyatları, ekspeditorlik kompaniyalari, omborxona komplekslari, taqsimlash markazlari , terminallar

**Аннотация:** в статье представлены новые сведения, касающиеся направлений развития логистической и транспортной инфраструктур в нашей стране, а также даны указания по некоторым вопросам бухгалтерского учета в организациях, оказывающих логистические услуги.

**Ключевые слова:** логистика, транспортные инфраструктуры, стратегия действий, автомобильный транспорт, модернизация, цифровое развитие, затраты, налоговые льготы, операторская деятельность грузовых перевозок, экспедиторские компании, складские комплексы, распределительные центры, терминалы.

**Abstract:** the article introduces new information related to the directions of development of logistics and transport infrastructures in our country. Also, instructions are given on some issues of accounting in entities providing logistics services.

**Key words:** logistics, transport infrastructures, action strategy, road transport, modernization, digital development, costs, tax benefits, cargo transport operator activities, forwarding companies, warehouse complexes, distribution centers, terminals

**KIRISH.**Aviakompaniyalar ,dengiz laynerlari,temiryo'llar va yuk tashuvchi firmalar kabi logistika va transport sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar sof daromadlariga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan bir qancha buxgalteriya va operatsion muammolarga duch kelishadi. Shuning uchun pul oqimi va likvidligini boshqarish uchun yaxshi buxgalteriya amalyotlariga rioya qilish juda muhimdir.

Mamlakatimizni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish bandida “Transport va logistika xizmatlarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;18 ta katta, 22 ta o’rta va 80ta kichik shaharlar o’rtasida transport-logistika tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish;Jahon bankining “Logistika samaradorligi” indeksida (LPI) O’zbekiston Respublikasining o’rnini **77**-pog’onadan past bo’lmagan darajagacha ko’tarish;hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog‘ini tashkil etish; xalqaro yuk tashishlardagi transport hujjatlarini (“e-Permit”, “e-TIR”, “e-CMR”) elektron ko’rinishga bosqichma-bosqich o’tkazish;yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish;mavjud konteyner terminallarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;temir yo’lda konteyner tashishlar ulushini kamida 2 barobarga oshirish.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Transport-logistika sohasida respublikamizning iqtisodchi olimlari Q.A.Dadabayev, J.R.Qulmuxammedov ,M.M.Aripjanov, K.M.Nazarov, F.R.Mirzayev o’zlarining ilmiy ishlarida logistika xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda ayrim masalalari boyicha ko’plab tadqiqotlar olib borishgan , lekin xozirgi iqtisodiyotni diversifikatsiyalsh sharoitida xizmatlar sohasidagi muammolari yaxlit, kompleks tarzda etarlicha o’rganilmagan. Bu esa, ushbu yo’nalishda ilmiy-tadqiqot olib borish zarurligini taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi:**Mazkur maqolani yoritishda tadbirkorlik faoliyatida logistika sohasiga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi nazariy jihatdan o’rganildi,ushbu jarayonga bog’liq fikrlar o’rganildi va statistik malumotlar tahlili amalga oshirildi.Mazkur jarayonlarda tadqiqot metodologiyasining ekspert baholash , statistik guruhlash ,qiyosiy va tarkibiy usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.**Rivojlangan xorijiy mamlakatlar va respublikamiz iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tahlil va natijalarni o’rganish natijasida ,mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish va yuksalishi bevosita logistika xizmatlariga bog’liq.

Logistika kompaniyalari har doim operatsion xarajatlardagi noaniqliklar bilan kurashishlariga tog’ri kelgan. Neft narxlari va yuk tashish stavkalarining o’zgarishi ularning foyda marjasи va yuk kotirovkalari rentabelligiga katta ta’sir ko’rsatishi mumkin.Covid-19 pandemiyasi potentsial ravishda onlayn xarid qilishni afzal ko’rish harakatini tezlashtirdi, bu qisqa vaqt ichida yetkazib beriladigan tovarlarga talabning oshishiga sabab bo’ldi.

Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilash, yangi O’zbekistonni yaratish, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan

yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlanadirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'l-transport va kommunikasiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlanirishga uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda oxirgi yillarda logistikani, klasterlarni, innovation faoliyatni, raqamlashtirishni shiddat bilan rivojlanirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Prezidentning «2018—2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuklarni tashish bo'yicha tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan avtomobil tashuvchilar va logistika kompaniyalariga soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etildi. Xalqaro avtomobil tashuvalarini amalga oshiradigan milliy avtotransport korxonalari hamda transport-logistika kompaniyalari 2022 yilgacha qo'shilgan qiymat, mol-mulk soliqlarini to'lashdan, shuningdek, yer solig'idan ozod qilinadi. Shu bilan bir vaqtda ortgan pullar kompaniyalarning o'zavtotransport vositalari parkini kengaytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga, zamonaviy omborxona terminallarini yaratishga va bank kreditlarini yopishga sarflanishi kerak. Bundan tashqari, kompaniyalar keltirilayotgan omborxona uskunlari, yuk ortish va tushirish texnikasi, agregatlar, zaxira qismlar va O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan boshqa mahsulotlar uchun bojxona to'lovlaridan ozod qilindi.

**Xulosa va takliflar:** Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, Mamlakatimizda transport-logistika klasterlarini rivojlanirish uchun potentsialdan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati iqtisodiyotning raqobatdoshligi va diversifikatsiyasini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda yetakchi rolni yuklarni muqobil transport turlariga ko'chirish uchun chegara temir yo'l stansiyalarida xalqaro transport koridorlari kesishmasida yaratilishi kerak bo'lgan transport logistika klasterlari o'ynaydi. Transport infratuzilmasi sohasidagi klaster siyosatining asosiy maqsadi transport va logistika xizmatlarining ichki va jahon bozorida tovarlarni saqlash, tashish, export qilish va yetkazib berishga ixtisoslashgan turli tuzilmalarni, shuningdek infratuzilma va boshqa tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni birlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishdir. Transport-logistika klasteri ma'lum bir tashkiliy shakl sifatida ma'lum bir hududning logistika salohiyatining rivojlanishi va o'sishiga hissa qo'shgan holda, xom ashyo yetkazib beruvchilardan, ishlab

chiqarish tuzilmalaridan iste'molchilarga yuk oqimlari harakatining texnologik zanjirlarini boshqarish samaradorligini oshirish muammosini hal qiladi. Transport-logistika klasterlarini shakllantirish bir qator vazifalarni samarali hal etish, tovar aylanmasini optimallashtirish, shu jumladan ekspeditorlik va terminal ombor komplekslarini oqilona qurilishini ta'minlash, transportning bir nechta turlari bilan bog'liq yuklarni tashish jarayonlarini ratsionalizatsiya qilish, tranzit salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, operatsion o'zaro ta'sir tizimini shakllantirish, rejalashtirish , transport markazlarida muvofiqlashtirish va dispatcherlik faoliyatini tartibga solish, tovar oqimlariga optimal xizmat ko'rsatishni ta'minlash, klaster a'zolari o'rtasida samarali ma'lumot almashinuvini ta'minlaydigan logistika axborot tizimini ishlab chiqish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ширинов, У. А. (2021). AUDITORY ANALYSIS OF COMMUNICATION ENTERPRISES SEGMENTS. *Экономика и социум*, (7), 550-553.
2. Ширинов, У. А. (2021). CONCEPTUAL ISSUES OF SEGMENTARY AUDIT IN COMMUNICATION ENTERPRISES. *Экономика и социум*, (7), 554-558.
3. ШИРИНОВ, У., & НАРЗУЛЛАЕВ, Н. МОЛИЯВИЙ МАЖБУРИЯТЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ЭКОНОМИКА*, 810-813.
4. ШИРИНОВ, У. МОБИЛ АЛОҚА ХИЗМАТЛАРИДАН ОЛИНАДИГАН ДАРОМАДЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *ЭКОНОМИКА*, 800-803.
5. Ширинов, У. Почта хизматларининг ҳисоб ва аудит обьекти сифатидаги таснифий асослари. *Экономика*, 804-809.
6. Ширинов, У., & Нарзуллаев, Н. Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. *Экономика*, 814-817.
7. Хусанов, М. (2021). Maxsus саволлар бўйича ўtkaziladig'an auditorlik tekshiruvlarinинг ташкилий ва metodologik aсослари. *Общество и инновации*, 2(4/S), 564-571.
8. Хусанов, М. X. (2021). THE NEED FOR A SPECIAL QUESTION-LIKED AUDIT. *Экономика и социум*, (5-2), 539-543.